

Biz tadqiqotlarimiz davomida Xorazm viloyati tuman va shaharlarini avtomobil biznesida servis xizmatlarining rivojlanganligini ifodalovchi o'ndan ortiq ko'rsatkichlarini baholash asosida o'rtacha rang ko'rsatkichlarini va shu asosda rivojlanganligi bo'yicha o'rinlarini hisoblab chiqdik

Xorazm viloyati tuman va shaharlarini avtomobil biznesida servis xizmatlari rivojlanganlik darajasi bo'yicha ranglarga ajratish, aynan sohani rivojlantirishda tabaqalashgan usul yordamida yondoshuvni hamda shu asosda sohani baholashning kengroq spektridagi ko'rsatkichlarni qamrab olishni, har bir hududdagi bo'shliqlarni to'ldirishni, servis xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha tarmoq hamda mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va investitsiya dasturlarini, viloyatda mavjud 526 ta mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida avtomobil biznesida servis xizmatlarini rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi


## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

*N.Sh.Mirzaaxmedov, PhD, dots v.b.  
Oriental universiteti, Iqtisodiyot va turizm kafedrasi mudiri*

Jahon iqtisodiyotida byudjetdan tashqari jamg'armalar har bir mamlakatning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishning sifatiga va ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shuninguchun ham keyingi yillarda Davlat byudjeti masalalariga (muammolariga) katta e'tibor bilan qaralayapti. Byudjetdan tashqari jamg'armalarda to'planayotgan mablag'lar mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya vaisloh etish sharoitida bir paytda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ularga tegishli sohalar vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning sotsial sohasiholatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Mamlakatning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish va rivojlantirish bo'yicha tadbirlar esa birinchi darajali ahamiyatga ko'tarilmoqda. Shuningdek aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, aholi yashash darajasini ko'tarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirish va uni takomillashtirib borish masalalari doimo jamiyat diqqat markazidan o'rin egallab kelishi va bu jarayonlardagi moliyaviy munosabatlarni tartibga keltirish o'ta murakkab muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bunday muammolarni yechishda Davlat byudjetining byudjetdan tashqari maxsus jamg'armalar daromadlarini o'rni benihoyat katta bo'lmoqda. Bunday mablag'lar Respublikamiz iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashda va uni barqarorlashtirishda ham salmoqli hissa qo'shmoqda. Davlat moliyasining tarkibida byudjetdan tashqari maqsadli maxsus jamg'armalar daromadlari alohida bo'g'inni tashkil etadi. Bunday jamg'armalar Respublikava mahalliy hukumat tomonidan boshqarilsada, tashkiliy jihatdan byudjetdan ajralgan va ma'lum mustaqillikka ega. Davlat byudjetining byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining bosh maqsadi maxsus maqsadli ajratmalar va boshqa manbalar

hisobiga davlatning maqsadli chora-tadbirlarni moliyalashtirish hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda maqsadli jamg'armalarning asosli faoliyat ko'rsatish ahamiyati o'sib bormoqda. Maxsus maqsadli jamg'armalarining mavqei muhim ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirishni kafolatlash imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Maqsadli jamg'armalar moliyaviy zahiralarni bajarish orqali Respublikava mahalliy hukumat organlari tomonidan moliyaviy qiyinchiliklar sezilgan hollarda bunday jamg'armalardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar. Byudjetning maqsadli jamg'armalar daromadlarini oqilona tashkil etilishi tufayli davlatning yagona moliyaviy tizimi doirasida moliyaviy resurslar harakatchanligi kuchaymoqda.



**1-rasm. Davlatni maqsadli jamg'armalarining parametrlari, 2020-yil uchun prognoz va 2021-2022 yillar uchun mo'ljallar.<sup>27</sup>**


Byudjetni maxsus maqsadli jamg'armalari mamlakat umumdavlat moliyasining tarkibiy qismi, ya'ni bir bo'g'ini hisoblanadi. Zero, ularning faoliyati iqtisodiy jihatdan asoslangan va huquqiy jihatdan ta'minlangan bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida o'ziga xos o'ringa ega. Byudjetning maxsus maqsadli jamg'armalari iqtisodiyot oldida turgan ishlab chiqarish sur'atlarini o'stirishni ta'minlash, vaqtinchalik barqarorsizlik va inqiroz holatlarini bartaraf etish kabi vazifalarni hal qilishda o'z ixtiyorlaridagi mablag'larning samarali sarflanishini yo'lga qo'yib kelmoqdalar. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Davlatni maqsadli jamg'armalarining parametrlari, 2020-yil uchun prognoz va 2021-2022 yillar uchun mo'ljallarni quyidagi rasm orqali kuzatishimiz mumkin.

Davlat maqsadli jamg'armalarining 2020-yilgi jami daromadlari 34 633,2 mlrd. so'mni, shundan 26,7 foizi, ya'ni 9 248,1 mlrd. so'mi Davlat byudjetidan ajratiladigan maqsadli transfertlardan tashkil topishi kutilyapti.

Byudjetni maxsus maqsadli jamg'armalari daromadlarini yuzaga keltirish manbalari ko'pincha jamg'armalarning amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifalar xarakteri va faoliyat miqyosidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Manbalarining turli xilligiga va ularning chegarasiga mamlakat rivojlanishining u yoki bu bosqichidagi iqtisodiy va moliyaviy holatlar ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, byudjetning maxsus maqsadli jamg'armalari daromadlarini tashkil etish manbalari, o'z oddiyliги, doimiyliги, vaqtinchaligi va ixtiyoriyligi xarakterlari bilan ajralib turadi.

<sup>27</sup>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020-yil uchun mo'ljallangan byudjetnomasi



**2-rasm. Davlat maqsadli jamg'armalarining 2020 yilgi kutilayotgan daromadlari ko'rsatkichlari<sup>28</sup>**

Hozirgi sharoitda byudjetni maxsus maqsadli jamg'armalari daromadlari avvalo manba va kelib tushadigan mablag'larning sarflanish yo'nalishlaridan, jamg'armalarning konkret maqsadidan, iqtisodiy sharoitlardan va ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilishiko'zda tutilgan dasturlar mazmunidan kelib chiqqanholda belgilanishi mumkin. Mablag'larning bir qismi ta'sis faoliyatiga, shuningdek qimmatli qog'ozlarga ham joylashtirilishi ko'zda tutiladi. Byudjetni maxsus maqsadli jamg'armalari tuzilmalari investor vamoliyaviybozor ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlar salmog'ining o'sib borishi mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan izohlanadi. Bunda asosiy e'tibor jamiyat a'zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, maorif, tibbiy xizmat kabi ijtimoiy sohalarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish amalga oshirilib kelinmoqda.

Davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy moliyaviy kategoriya sifatida jamiyat hayotidagi rolining oshib borishiga birinchi navbatda uning daromad bazasini qay tarzda va darajada shakllanganligiga bog'liq. Shu jihatdan olganda maqsadli jamg'armalarining daromadlarini shakllantirish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish barcha vaqtlarda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Moliya tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan byudjetdan tashqari jamg'armalar tizimini isloh qilishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishimiz lozim:

iqtisodiyotdagi byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromadlarini samarali shakllantirish va uning manbalari tarkibini optimallashtirish;

davlat maqsadli jamg'armalar tizimining barcha bo'g'inlarida daromad va xarajatlarni muvozanatlashtirish;

davlat maqsadli jamg'armalar moliyaviy resurslarni muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirish maqsadida konsentratsiyalash;

daromadlarni davlat maqsadli jamg'armalari turli bo'g'inlari xarajat majburiyatlariga asoslangan holda taqsimlash mexanizmini samarali shakllantirish;

davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarini manzilli va maqsadlilikini ta'minlash. Ulardan iloji boricha iqtisod qilingan holda zaruriy ehtiyojlarni

<sup>28</sup>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020-yil uchun mo'ljallangan byudjetnomasi

moliyalashtirishga yoʻnaltirish hisoblanadi;

iqtisodiyotni real sektorini, yaʼni ishlab chiqarishni yanada modernizatsiyalash hamda mamlakat YaIM hajmini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamgʻarmalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

Davlat maqsadli jamgʻarmalari faoliyatini moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash va barqarorlashtirish maqsadlarida jamgʻarmalarga kapital qoʻyilmalar va investitsiyalarni jalb etish ularning davlat byudjetidan dotatsiyalar olish holatlarini qisqartiradi;

Oʻzbekistonda davlat maqsadli jamgʻarmalarining barqaror hamda uzluksiz faoliyatini taʼminlash uchun eng muhim yoʻnalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat koʻrsatish va kasanachilik sohalarini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirishni ragʻbatlantirishdan yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining shakllantirish zarur;

Mamlakat moliyaviy qonunlariga jamgʻarma daromadlari hajmini optimallashtirishni, moliyaviy resurslaridan foydalanish boʻyicha javobgarlikni oshirishni koʻzda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritish;

Davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlarining aniq va maqsadli, standartlardan ogʻishmay ishlatilishi ustidan nazoratni yanada oshirish, jamgʻarmalar daromadlari shakllanishi va xarajatlarining ijrosini amalga oshirishda amaldagi gʻaznachilik tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash orqali dastlabki va joriy nazoratlar mustahkamligini taʼminlash;

Byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamgʻarmalardan samarali foydalanish maqsadida davlat moliyaviy siyosati bilan davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatining bir xilligini taʼminlash;

Mamlakatning kelgusi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishida moliya tizimi barqaror faoliyatini taʼminlovchi ijtimoiy yoʻnalishdagi maqsadli jamgʻarmalarni shakllantirish.

Jamgʻarib boriladigan pensiya taʼminoti tizimini takomillashtirish va jamgʻarib boriladigan pensiyani ixtiyoriy badallar hisobiga shakllantirishni ragʻbatlantirish.

Aholini ijtimoiy himoyalash muammolari qanchalik keng qamrab olinganligi va ilmiy jihatdan chuqur oʻrganganligiga qaramay, bozor iqtisodiyotiga oʻtish sharoitida bu masalaning dolzarbligi saqlanib qolaveradi. Iqtisodiyot taraqqiy etgan sari mazkur fondlarning ahamiyati ham ortib boradi. Bu esa byudjetdan tashqari fondlarning mohiyati va vazifasini ilmiy tarzda tushunishni, tahlil etishni, ularning faoliyatini jahon tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirishni talab etadi.

Respublikamizda davlatning maqsadli fondlarini shakllantirish masalalari va ularning muammolarini yechish boʻyicha qabul qilingan ayrim qonunlar va qarorlar yetarlicha mukammal ishlab chiqarilmoqda. Oʻtkazilgan tahlillar natijasida kelgusida Respublika davlatning maqsadli fondlarini kuchaytirish, ularning moddiy-moliyaviy bazasini mustahkamlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish muammolarini yechishda hamda davlatning maqsadli fondlari taʼsiri ostida qoʻllab-quvvatlanishiga quyidagi takliflar berildi. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi davlatning maqsadli fondlaridan



ajratiladigan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanish muhimahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Shuningdek, byudjetdan moliyalanadigan sohalarga mablag'larni to'liq hajmda safarbar etish imkoniyatini ta'minlash maqsadida davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning aniq hisob-kitobini olib borish lozim. Ijtimoiy sohalardagi ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat standartlarini o'rnatish va ularga amal qilinishini nazorat qilishni yo'lga qo'yish lozim, aks holda xizmatlar narxining oshib borishi bilan ularning sifati o'rtasidagi bog'liqlik uzilib bormoqda, malakali xizmat qimmat turishi bilan birga, sifat standartiga ham javob berishi kerak, deb hisoblaymiz.

O'tkazilgan tahlillar va izlanishlar natijasida quyidagilarni taklif sifatida kiritamiz:

Birinchidan, davlatning maqsadli fondlarini shakllantirish va iqtisodiyotda yanada rolini oshirish hamda ularni turlarini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, davlatning maqsadli fondlarini bo'sh turgan qismidan ya'ni ortiqcha bo'lgan taqdirdagina mablag'lardan samarali foydalanish, xususan, investitsiyava kreditlardan foydalanishni yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun davlatning maqsadli fond mablag'larini yanada oshirish lozim.

To'rtinchidan, ijtimoiy infratuzilma, servis va xizmatlar sohasining hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ular ishtirokida ixtisoslashgan jamg'armalarni yaratish masalalarini ko'rib chiqish lozim.

Beshinchidan, davlatning maqsadli fondlarini davlat g'aznachiligi orqali tashkil etishga to'liq o'tish lozim. Bu daromadlar vaxarajatlar bo'yicha barcha operatsiyalarni umumiy hisobraqamida birlashtirishni ta'minlaydi, umumiy hisob va hisobot standartlarini yaratish va davlatning maqsadli fondlari mablag'laridan maqsadli foydalanishni yangi sifat asosida nazorat qilishga xizmat qiladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

*O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son.*

*O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.*

*O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.*

*O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-657-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5186044>*

*O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-742-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5801127>*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari Yunusobod tumani kengashining 2022-yil 5-yanvardagi "Yunusobod tumanining 2022-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risidagi" II-57-1-14-206-K/22-sonli qarori*

*[Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.](#)*

*Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.*

*Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo*

etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-y. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

Qobulov X.A. Mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini mustahkamlash mexanizmiga kreativ yondashuv // j. Moliya. –1/2021-son, 2020. 5-16-b.

Shernaev A.A. On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies. «Экономика и бизнес: теория и практика». Международный ежемесячный научный журнал - №9-2 (67). Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 149-152.

Шернаев А.А. Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах – как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество: международный научно-практический журнал. – Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», Ноябрь-Декабрь 2020. №04 (18). с. 20-28

Shernaev A.A. O‘zbekiston respublikasida kompaniyalar tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda soliqlarni rejalashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2020 yil.

Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES. International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357

## **SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSION FAOLLIKNI JADALLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

**N.Panjiyeva**, dotsent  
Termiz Davlat Universiteti

Yangi O‘zbekistonni Taraqqiyot Strategiyasini amalga oshirishdagi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari mintaqalararo raqobatni kuchaytiradi. Bu esa ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hududlar orasidagi farqni kamaytirish maqsadida mintaqa iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va investitsion jarayonlarni faollashtirishni talab etadi<sup>29</sup>.

Surxondaryo viloyatida investitsiyaviy faoliyat asosan sanoatning yengil, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari rivojlanishiga karatilgan. Oxirgi 10 yil davomida viloyatda investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi natijasida investitsiyalar hajmi 2 barobar oshdi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi respublika o‘rtacha darajasining 46 foizini tashkil etadi.

Bu esa o‘z navbatida uzoq muddatli istiqbolda an‘anaviy investitsiya omillari evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish jarayonlarini sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushining pastligi (bu ko‘rsatkich viloyatda 24,6% bo‘lsa, respublikada o‘rtacha 38,2%) viloyatning iqtisodiy o‘shida yetarlicha samarasini bermayapti.

Hududlar kesimida investitsiyalarning asosiy qismi (47%dan ortig‘i) Termiz shaxri, Sariosiyo, Boysun va Jarqo‘rg‘on tumanlariga to‘g‘ri keladi. Angor, Shurchi, Uzun, va Muzrabot kabi tumanlarida investitsiyaviy faollik industrial markazlarga nisbatan ancha past darajada qolmoqda. Bu holat sababli mintaqaviy rivojlanishda

<sup>29</sup> 2022 — 2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI  
[https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)